

ABDULLA QAHHORNING “O‘TMISHDAN ERTAKLAR” QISSASIDAGI “HUR QIZ” QISMATI

Abdivaliyev Obitjon Odiljonovich,

NamDU o‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda yaratilayotgan badiiy asarlardagi inson ruhiyati va uning ichki olami bilan bog‘liq muammolarga alohida masala sifatida qaralmoqda. Aslida o‘tmishda yaratilgan ko‘plab asarlarimizda ham bu mavzu mavjud edi. Abdulla Qahhorning o‘tmish mavzusidagi “Bemor”, “Anor”, “Boshsiz odam”, “Dahshat” hikoyalaridagi ayollar taqdiri, ular ruhiyati bilan bog‘liq masalalarning o‘ziga xos tarzda ifoda etilganligi ham fikrimizning isbotidir.

Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasidagi qahramonlar ruhiyati masalasi tadqiq etilgan. Bu qissada keltirilgan “Hur qiz” nomli hikoyadagi voqealar mazmuni, undagi qahramonlar xarakter xususiyatlari, bosh qahramon yosh Abdullaning bolalik xotiralari asosida o‘rganilgan. Amakisining qizi bo‘lgan Sarvinisoning erksizligi, ichki ruhiy iztiroblari va ayancli qismati ifodasi yozuvchining mahorati orqali haqqoniy ochib berilganligi ilmiy tahlil etilgan.

Qissada yosh Abdullaning o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va ishtirokchisiga aylangan voqelar keltirilishi, Sarviniso inson sifatida qalbidagi o‘z xohish – istaklarini qondira olmaganligi, uni ko‘ngil qo‘ymagan insonga unashtirib qo‘yilishi, uni ko‘ngli bilan hech kim hisoblashmasligi, iztiroblar iskanjasida yashashi va otasi tomonidan kaltaklanib o‘ldirilishi voqealari yozuvchi mahorati misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: qissa, badiiy asar, qahramonlar ruhiyati, obraz, hikoya, janr, voqea, ifoda, tahlil.

THE FATE OF THE “FREE GIRL” IN ABDULLA QAHHAR’S NOVELLA “TALES FROM THE PAST”

Abdivaliyev Obitjon Odiljonovich,

Annotation. Problems related to the human psyche and its inner world in works of art created today are considered a separate issue. In fact, this topic was present in many of our works created in the past. The fact that the fate of women and issues related to their psyche in Abdullah Qahhor's stories on the theme of the past, "Patient", "Pomegranate", "Headless Man", "Horror", are expressed in a unique way is also proof of our opinion.

This article examines the issue of the psyche of the characters in Abdullah Qahhor's story "Tales from the Past". The content of the events in the story "Hur qiz" presented in this story, the character traits of the characters in it, and the childhood memories of the main character, young Abdullah, are scientifically studied. The writer's skill has scientifically analyzed the fact that the helplessness, inner mental anguish and tragic fate of Sarviniso, who is his uncle's daughter, are truthfully revealed.

The story presents the events that young Abdullah saw with his own eyes and became a participant in, Sarviniso's inability to satisfy her desires and wishes as a human being, her engagement to a man who did not like her, The events of his being ignored, living in torment, and being beaten to death by his father are explored through the lens of the writer's skill.

Keywords: *short story, work of art, character psychology, image, narrative, genre, event, expression, analysis.*

СУДЬБА „РАЙСКАЯ ДЕВА“ В ПОВЕСТИ АБДУЛЛЫ КАХХАРА „СКАЗКИ ПРОШЛОГО“

Абдивалиев Обитжон Одилжонович,

«Преподаватель кафедры узбекского литературоведения

Наманганского государственного университета»

Аннотация. В современно создаваемых художественных произведениях проблемам, связанным с человеческой психикой и его

внутренним миром, уделяется особое внимание как отдельному вопросу. На самом деле эта тема присутствовала и во многих наших произведениях, созданных в прошлом. Судьба женщин и вопросы, связанные с их психологией, своеобразно выраженные в рассказах Абдуллы Каххара на тему прошлого – «Больной», «Гранат», «Человек без головы», «Ужас», – также подтверждают нашу мысль.

В данной статье исследуется проблема психологии героев в повести Абдуллы Каххара «Сказки из прошлого». На основе содержания событий в рассказе «Райская дева», включённом в эту повесть, изучены особенности характеров персонажей и детские воспоминания главного героя – юного Абдуллы. Научному анализу подвергнуты бесправие двоюродной сестры героя Сарвинисо (дочери дяди), её внутренние душевные муки и трагическая судьба, раскрытые писателем с подлинным мастерством.

В повести рассматриваются события, увиденные собственными глазами юного Абдуллы и превращённого в их участника; показано, что Сарвинисо как человек не смогла удовлетворить свои внутренние желания и стремления, её обручение с нелюбимым человеком, полное игнорирование её чувств, жизнь в тисках страданий и убийство отцом побоями – всё это анализируется на примере писательского мастерства.

Ключевые слова: повесть, художественное произведение, психология персонажей, образ, рассказ, жанр, событие, выразительность, анализ.

KIRISH

Inson ruhiyati, uning kechinmalari badiiy asarlarda xuddi hayotdagidek aks etar ekan, u kitobxon qalbini larzaga solishi, hayrat iskanjasiga tushirishi va bir umrga uning qalbidagi saqlanib qolishi tabiiy holatdir. Qahramonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, iztirob va alamlari, muvaffaqqiyatsizligi har qanday o'quvchi e'tiborini tortadi.

Abdulla Qahhor asarlarida ayollar taqdiri, ular ruhiyati bilan bog'liq masalalar o'ziga xos tarzda ifoda etiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek

yozuvchi kashf etgan qahramonlar ichki olami kitobxon iztiroblariga aylanib ulgurganligi ham shundadir. Yozuvchining “Bemor” hikoyasidagi Sotiboldining xotini, “Anor” hikoyasidagi Turobjonning turmush o‘rtog‘i, “Boshsiz odam” asaridagi Niso buvi, “Dahshat”dagi Unsin obrazlarining ayanchli qismati o‘z o‘quvchisi yodida hamon yashab kelayotgani haqiqatdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

“Badiiy obraz kitobxonda, albatta, qandaydir estetik hissiyot (emotsiya) uyg‘otishi kerak. Chunonchi, hayotdagi xunuklikni aks ettirgan badiiy obraz kitobxonda nafrat uyg‘otsa, go‘zallikni ifodalagan obraz estetik zavq-shavq, beradi.” [1,50.]. Abdulla Qahhorning yuqoridagi asari qahramoni Sarvinisoning achchiq qismati, insoniy huquqlarining poymol etilishi va aynan bu qotillikning o‘z otasi Abdurahmon tomonidan bajarilishi har qanday kitobxonda nafrat hissini o‘yg‘otadi.

Adabiyot – insonshunoslik ekan, adabiy asardagi obrazlar hayotdagi kishilarning fe‘l-atvorlariga – xarakterlariga muvofiq kelishi, eng asosiysi, hayotiy bo‘lishi talab qilinadi. [5,47.]. Darhaqiqat, Abdulla Qahhor tasvirlagan bu obrazlar yozuvchining o‘zi ko‘zi bilan ko‘rgan va mana shu voqealarga ham o‘zi guvoh bo‘lganligi uchun ham juda ta’sirli va ishonarlidir. Shu sababli ham yozuvchi qahramonlar xarakterini, fe‘l- atvorini tasvirlab berishda aniq voqealarga suyanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI:

Mazkur maqolada mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy va tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR:

Yozuvchi Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”qissasida bir nechta hikoyalar keltiriladi. Shulardan biri “Hur qiz” haqidagi hikoyadir. Asardagi eng ayanchli qismat egalaridan biri bo‘lgan Sarviniso Abdullaning amakisining qizidir. Abdulla amakisining uyiga kelganida unga chin ko‘ngildan, samimiy muomalada bo‘lgan inson ham Sarviniso edi. Sarviniso o‘z zamonidagi boshqa qizlar kabi erki va ixtiyori ota-onasining qo‘lida bo‘lgan chorasiz xotin-qizlardan biri edi. Uni o‘zi ko‘ngil qo‘ymagan Azim ismli duduq yigitga turmushga berishmoqchi bo‘lishadi.

Sarvinisoning yigitga ko'ngli yo'qligini yosh Abdulla onasidan eshitadi. Ayasi qiz uni quchoqlab zor-zor yig'laganini aytadi. Qiz juda ko'p marta Abdullani ham bag'riga bosib tovush chiqarmay yig'lab oladi.

Kunlardan bir kuni Sarviniso Abdullaga yonqoq chaqib berib o'tirib uning boshini tizzasiga qo'yadi va yana ich-ichidan zor-zor yig'laydi. Ko'chadan kelayotgan poezdning ovozigga qarata: "Poezd meni chaqiryapti... Chaqir! Qattiqroq chaqir, boraman. Meni uzoq-uzoq yurtlarga olib ket. – " [3, 210.]. deydi. Buni eshitib qolgan otasining jahli chiqib Sarvinisoga otiladi. Qiz uyga qochib kirganida ota uning ortidan kirib rosa kaltaklaydi. Ota qizini juda qattiq urgan edi. Qiz ingrab-ingrab o'ziga kela olmaydi va saxargacha joni uziladi.

Qissada yosh Abdullaning o'z ko'zi bilan ko'rgan va ishtirokchisiga aylangan voqelar keltiriladi. Sarviniso inson sifatida qalbidagi o'z xohish – istaklarini qondira olmadi. U o'zi ko'ngil qo'ya olmagan insonga unashtirib qo'yilganidan boshlab ko'ngli vayron va iztiroblar iskanjasida yashadi. Buni ochiq-oydin otasiga ayta olmaydi. Ota uning ko'ngli bilan o'rtoqlashib o'tirmaydi. Oilada otaning gapi haqiqat hisoblanadi. Uning fikriga, uning harakatlariga hech kim qarshi chiqa olmaydi. Abdullaning oilasi ko'chib kelganida Sarvinisoning ko'nglida qandaydir taskin paydo bo'lgandek bo'ladi. Amakisi ham, kelin ayasi ham tushungan insonlar ekanligiga oz bo'lsada qizni tushunishlariga umid bog'laydi. Abdullaning ota-onasi ham to'yni keyinroqqa surishni maslahat berishadi. Lekin ota o'z so'zidan qaytmaydi. To'y kunini belgilaydi.

Yozuvchi Abdulla Qahhor o'z bolalik xotiralarini jonlantirar ekan uning uchun Sarviniso opasidek mehribon va samimiy qiz dunyoda yo'q ekanligini his qilish mumkin. Uning yozganlarini o'qigan kitobxon yosh Abdulla bilan birga Sarviniso ko'ngliga ham kirishga, uning dardlariga sherik bo'lishga intiladi. Dastlabki vaqt oralig'ida Sarvinisoning ko'nglida qandaydir ishonch uchqunlari bor edi. To'y kuni aniq bo'lgandan keyin esa uning umidlari barchasi so'ndi. U faqat ichki iztiroblar, alamlar dunyosida yashay boshladi. Qiz qalbidagi tug'yonlar, ichki faryodlarni yosh Abdulla sezib turardi. Lekin buning chorasi qanday bo'lishini hali tushunib yetmas edi.

Asarda Sarvinisoning betob bo'lib yotgan onasi obrazi ham tasvirlanadi. To'shakka mixlanib qolgan, chorasiz ayol timsoli. U tezroq tirikligida qizining to'yini ko'rib qolishni xohlaydi holos. Ayol qizi Sarvinisoning o'limini o'z qaynonasidan eshitadi. Kampir qizini to'satdan o'tib qolganini aytadi. Bu gapni eshitgan mushtipar ayolning holatini yozuvchi shunday tasvirleydi: "Teri-yu suyakdan iborat bo'lib qolgan bemor ko'zlarini katta ochdi, oppoq tilini zo'rga chiqarib, qonsiz lablarini yalagan bo'ldi, ko'zlarini yana yumdi, kipriklari yaltiradi. Uning kuygani, yig'lagani, faryod chekkani shu, bundan ortiqqa madori yo'q edi." [3, 210.].

Sarvinisoning o'limidan ikki kun keyin uning bemor bo'lib yotgan onasi ham vafot etadi. Abdullaning buvisi Sarvinisoni "Bola bechora qiz ketdi. U dunyoda hurlarga qo'shilib ketadi..." [3, 210.]. – deydi. Yosh Abdulla uchun "hur qiz" hikoyasi shunday yakunlandi.

XULOSA

Biroq bolaning qalbida muhrlanib qolgan qizning qalb iztiroblari buyuk asarlarning yozilishiga turtqi bo'ldi. Yozuvchining turli janrlarda yaratgan qahramonlari misolida namoyon bo'ldi. Shuning bilan birga Abdulla Qahhor yaratgan qahramonlar yozuvchi o'zi bilgan va tanigan insonlar bo'lganligi uchun ham haqqoniy va ishonarli qiyofalarda aks eta oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 560 b.
2. Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti – Toshkent: .1987.368 b.
3. A. Qahhor. O'tmishdan ertaklar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti , 1989. B.210.
4. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/umarali-normatov-abdulla-qahhor-haqida-abdulla-qahhor-zamondoshlari-xotirasida.html>
5. Umurov.H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.B.47.
abdiobitjon330@gmail.com
tel raqam: +99899-922-27-55

